

"Mang'istau tarix to'lqinida"- tarix va bugunni jonlantirgan anjuman

Xabaringiz bor joriy yilning 16-17- noyabr kunlari Qozog'istonning Mang'istau viloyati Aqtau shahrida "Mang'istau tarix to'lqinida" nomli xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tmoqda. Ushbu konferensiya Orol-Kaspiy xalqining nomoddiyi, moddiy madaniy merosi, etnogenezi, tarixini o'rganishga bag'ishlanadi.



Unda Fanlar akademiyasining bir qator olimlari qatorida San'atshunoslik institutining "Me'morlik" bo'limi boshlig'i, san'atshunoslik fanlari doktori, professor Mavluda Yusupova ham ishtirot etmoqda. Anjumanning birinchi kuni turli davlatlarda tashrif buyurgan olimlarning ma'ruzalarini tinglashga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi kuni Press-turdan iborat. Bugun "Cho'llarda va plato Ustyurtlardagi yerosti va qoyatoshlarga uyilgan masjid-so'fiylik xonaqoxlari" bo'yicha Press-tur bo'lib o'tmoqda.